

## **INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING DARS O'TISH JARAYONIDA**

### **PSIXOLOGIK YONDASHUVI**

Iskandarov Oybek Xayrullayevich

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti Magistri



#### **Annotatsiya:**

Hozirgi kunda chet tilini o'qitish, ayniqsa, ingliz tiliga talabning ortishi bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilarining yanada o'quvchilarning yoshiga, salohiyatiga, qiziqish darajasiga psixologik yondashib harakat etishlarini talab etadi.

**Kalit so'zlar.** Psixologik yondashuv, ingliz tili, mexanizm, qaror, qiziqarli metodlar, video darsliklar, IELTS, milliy sertifikat, farmon, reading, listening, speaking, writing, xalq ta'limi

Hozirgi rivojlanayotgan zamonda va taraqqiyoti yuqori bo'lgan davlatlar tilini o'rganish va bu fanlarni osonroq hamda tushunarliroq qilib yoshlarga o'rgatish chet tili fani o'qituvchilaring faqat bilim bilan kifoyalanmay, balki ko'nikma va malakalarini oshirishini, shuningdek, har bir bola bilan psixologik yondashuvini talab etadi.

Ingliz tilini o'rganish zamon talabi darajasida ekan. Hozirgi kunda yoshamizning til bilish darjasini qanchalik yuqori va o'rganishga imkoniyatlar bormi. Yurtimizda maktabgacha ta'linda va muktab ta'linda birinchi sinfdan ingliz tilining o'qitilishi darsliklarning 4 bosqichda olib borilishi, ya'ni o'qib tushunish reading, tinglash listening, gapirish speaking, va yozish writing ni o'z ichiga oladi. Til o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi kunda rivojlangan. Tilni turli metod va usullar yordamida oson va qulay o'rgatish mumkin.

Yurtimizda til bilishni baholash maqsadida chet tili uchun maxsus "Milliy sertifikat", IELTS sertifikatlarining joriy qilinishi va bu sertifikatlarni olgan o'qituvchilarga ustama sifatida 50 foiz maoshiga qushib berilishi, oliy o'quv yurtlariga kirmoqchi bo'lgan yoshamizga ball berish imkoniyatining mavjudligi ingliz tilining avvalgiga nisbatan yanada ko'proq o'rganuvchilarning sonining ortishini kurishimiz mumkin. Shu o'rinda, Yurtdoshimiz tamonidan qabul qilingan qarorni keltirishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 11- maydagi PF-134-son “2022-2026- yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni ijrosini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Moliya vazirligi qaror qiladi;

1. Quyidagilar:

Milliy baholash tizmi muvofiq bo‘lishi lozim bo‘lgan xalqaro standartlar ro‘yxati 1- ilovaga muvofiq;

Ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlar ro‘yxati 2- ilovaga muvofiq;

Xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar ( ularning kombinatsiyasi) ro‘yxati 3- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Hududiy xalq ta’limi bo‘linmalari mazkur qaror bilan tasdiqlangan ilovaga muvofiq xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlarga ega pedagog kadrlarga 2022-yil 1-sentabrdan boshlab qonunchilikda belgilangan tartibda har oy qo‘sishma ustama to‘lab borilishini nazoratga olsin.

3. Mazkur qaror 2022-yil 1-sentabrdan kuchga kiradi.

Vazirlar Mahkamasining “ Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13- maydagi 395-son qarori bilan belgilangan Davlat test markazi tomonidan beriladigan chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi sertifikat yoki xalqaro tan olingan sertifikatning tegishli darajalariga ega bo‘lgan abituriyentlarga o‘qishga kirish sinovlarida berilgan imtiyozlar saqlab qolinadi.

Bu qarorlarda ko‘rinib turibdiki, chet tilini bilish, xususan, ingliz tilini bilish va o‘qitish va ingliz tiliga talabning ortishi bugungi kunda ingliz tili o‘qituvchilarining yanada o‘z ustilarida ishlashni, shuningdek o‘quvchilarining yoshiga, salohiyatiga, qiziqish darajasiga psixologik yondashib harakat etishlarini talab etadi. Ingliz tili o‘qituvchilarining dars o‘tish metodikasida o‘quvchiga bilimini tezroq yetkazib berish maqsadida ingliz tilidagi so‘zlar bilan musiqa tinglash, talaffuz, so‘z boyligi va jumlalar tuzilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Qiziqarli tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yangi tilda qo‘sishq tinglash bolalikda birinchi marta gapirishni o‘rganganidek, grammatik qoidalarni osonroq tushunishga ko`maklashadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, avvalo, ingliz tilini o‘rganish uchun istak va hohish kuchli bo‘lishi kerak. Va ingliz tilida yuqori natijaga erishgan insonlarning

maslahatiga amal qilgan holda til o`rganishda muntazamlikni yo`lga qo`yishni maqsad qilish zarur. Bu yo`lda ingliz tili o`qituvchilaridan qilinadigan talablardan biri har bir o`rganuvchiga psixologik jihatdan yondashish lozim bo`ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Chet tillarini o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida (PQ-1875-son) qarori. Xalq so`zi gazetasi. 2012- yil 12-dekabr.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 -yil 11-maydagি PF-134-son “ 2022-2026 -yillarda xalq ta`limini rivojlantirish bo`yicha milliy dasturni tasdiqlash to`g`risida “ gi farmoni